

O'ZBEK XALQINING BIR-BIRIDAN GO'ZAL IBORALARINING MA'NOLARI VA KELIB CHIQISH TARIXI.

Abdimurodova Sevara Erkin qizi

Surxondaryo viloyati Termiz davlat universiteti
Filologiya va tillarni o'qitish o'zbek tili (sirtqi ta'lim)
yo'nalishi 3-bosqich talabasi.

Email address: jurayevjasurbek053@gmail.com

Telefon raqam: [+998915156642](tel:+998915156642)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10043865>

Annotatsiya. O'zbek xalqining bir - biridan go'zal ma'nolarga ega bo'lgan, ammo yo'qolib ketish arafasida turgan, juda kam qo'llanilayotgan nafaol iboralarni targ'ib qilish va ularning umrini uzaytirish, yosh avlodga yetkazish maqsadida yozilayotgan ushbu maqolada ularning mazmuni va kelib chiqish tarixi yoritilgan.

Kalit so'zlar: Go'za, shudsiz, arxaik, mengzamoq, frazeologizm, ibora.

САМЫЕ КРАСИВЫЕ ВЫРАЖЕНИЯ УЗБЕКСКОГО НАРОДА ЗНАЧЕНИЯ И ИСТОРИЯ ПРОИСХОЖДЕНИЯ.

Аннотация. В этой статье, которая пишется в целях популяризации и продления жизни узбекского народа, которые имеют прекрасные смыслы, но находятся на грани исчезновения, и редко используются, чтобы передать их молодому поколению. и история происхождения освещены.

Ключевые слова: Гоза, шудзиз, архаика, менгзамак, фразеологизм, словосочетание.

THE MOST BEAUTIFUL EXPRESSIONS OF THE UZBEK PEOPLE MEANINGS AND HISTORY OF ORIGIN.

Abstract. In this article, which is being written in order to promote and extend the life of the Uzbek people, which have beautiful meanings, but are on the verge of disappearing, and are rarely used, to pass them on to the younger generation. The content and history of the origin are covered.

Key words: Goza, shudziz, archaic, mengzamak, phraseologism, phrase.

KIRISH

O'zbek millatining xalqog'zaki ijodida bir-biridan go'zal bo'lgan iboralarning borligi bizga sir emas, albatta. Bu esa qadim-qadimdan shakllanib, bugungi kundagi ko'rinishga kelgan. Ming afsuslar bo'lsinki, bazi iboralar jamiyat aralashishi va chet tillarning kirib kelishi natijasida o'z o'rnida qo'llanilishi ancha kamaygan. Bu bir tomondan tillarning boyishini ta'minlasa, ikkinchi tomondan mana shunday so'zlarning eskirishiga olib keladi. Biz ushbu maqola bilan mana shunday nafaol bo'lgan iboralarni yoritib bermoqchimiz va shu bilan bir qatorda iboralarning ma'nolari va kelib chiqish tarixini o'rganamiz.

Darhaqiqat, xalqimiz tomonidan ishlatiladigan iboralarning izohi va kelib chiqish tarixi bir -biridan qiziq va nihoyatda ajoyib.

Masalan: **“Daqqiyunusdan qolgan”** iborasining kelib chiqish tarixi quyidagicha “Qadim zamonda Daqqiyunus ismli podshoh bo'ladi va u podshoh juda badavlat podshoh bo'lib xazinasini uchta qaroqchi bir kechada o'marib ketadi va g'orga kirib tunamoqchi bo'ladi, g'orga kirib bir

kecha uxladi deb o'ylagan qaroqchilar aslida 300 yil uxlashgan bo'lishadi. O'rnidan turib qarashsa tong yorishib ketgan shunda biri o'g'irlangan oltin tangalardan olib bozorga tushishadi va narsalar xarid qilib evaziga oltin tangani berishadi. O'sha vaqt sotuvchidan g'alati bir gap eshitibdi, boshqa sotuvchidan xarid qilmoqchi bo'lsa, yana shu gaplar takrorlanibdi. Ya'ni har ikkala savdogar ham bir xil gap "Daqqiyunusdan qolgan-ku" degan iborani ishlatgan ekan." Shundan anglashimiz mumkinki, iboraning kelib chiqishi uning qadimga borib taqalishidan dalolat beradi. Bu iboraning izohiga keladigan bo'lsak "eski" degan ma'noda qo'llaniladi.

"Boshini kulga purkaguncha" iborasi - o'ta og'ir ahvolga tushmoq, ruhan azoblanish ushbu iboraning kelib chiqish tarixi ham uzoq o'tmishga borib taqaladi. "Yahudiy qabilalarda shunday arxaik urf-odatlar bo'lgan ekanki, ular ma'lum bir qayg'uni yoki umidsizlikni ma'lum bir harakatlar orqali namoyon qilishar ekan. Kimningdir biror yaqin qarindoshi olamdan o'tsa yoki boshiga og'ir kulfat tushsa, boshidan va yelkalaridan kul sochishar yoki bo'lmasa sochlarini yulib yuzlarini timdalab tashlashar ekan." Yuqorida keltirilgan ibora shu voqeadan kelib chiqqan.

"Alifni kaltak deyolmadi" – bu biror ishni eplayolmaydigan ma'nosida qo'llaniladigan ibora. "Alif arab alifbosining birinchi harfi va uning nomi. Savod chiqarishga kelgan ilk odam ta'limni shundan boshlagan. Iborada tasvirlangan odam shakli tayoqqa o'xshash bu harfni ko'rib, kaltak yoki tayoqqa ham mengzolmaydigan darajada bo'lgan. Iboraning **alifni tayoq deydi** shakli ham bor. Aslida bunda istehzo yanada oshadi. Jumlada tilga olingan kishi savodsizning savodsizi, u harf bilan tayoqni ajratolmaydi va shu sababli alif harfini ko'rib, bu tayoq bo'lsa kerak deb o'ylaydi.

"Ammamning buzog'i" – Ushbu ibora haqoratli ma'noda bepisandlik bilan qo'llaniladi va hech qanday ishni eplolmaydigan, shudsiz kabi ma'nolarni anglatadi. Ko'pincha iboralar tarkibidagi so'zlarning ma'nolari unutiladi. Ushbu frazeologizm ham *amma* va *buzoq* so'zlari o'z ma'nosida emas, bu ibora o'xshatish sabab paydo bo'lgan. *Nima bo'layotganini tushunmay, kalovlanib turish holati* buzoqning jovdirashi, onasini izlab dovdirashiga o'xshatilgan.

"Ko'z ochib ko'rgan" iborasi *Ilk bor nikoh qurgan kishilarga nisbatan ishlatiladi*. Qiz ilk bor turmushga chiqayotgan bo'lsa, kuyov u uchun *ko'z ochib ko'rgan* sanaladi. Bu iboraning paydo bo'lishi chimildiqdagi *oyna tutish* udumi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

"Ming qo'yli boy" ushbu ibora o'zbeklarning qo'ng'iroq urug'ida o'lchov ma'nosida ishlatilgan, ya'ni qo'ylar soniga qarab, egasining moddiy holati tasvirlangan. Ming qo'yli boy degani mingta qo'yga ega bo'lgan odamga nisbatan ishlatilgan, chorva mollari soniga qarab ibora ham o'zgarib borgan. Xuddi shu ibora Yevropa xalqlarida **"Bir qop murch"** shaklida uchraydi. Ya'ni bunda o'z davrida qimmatbaho hisoblangan murch o'lchov ma'nosini ifodalagan.

"Sichqonning ini ming tanga" "bu ibora kishi chorasizlikda qolgan holatiga nisbatan ishlatiladi. Yashirinishga tayyor inson joy topa olmaganidan sichqonning kirishi imkonsiz bo'lgan inini olishga tayyorligini ko'rsatish uchun kelib chiqqan.

Bu kabi iboralar hozirgi kunda yuqolib borayotgan iboralar sirasiga kiradi.

Albatta, shu o'rinda o'zbek xalqining mag'zi to'la maqollariga nazar tashlasak, bu ham aslida xalqimizning ma'naviy me'rosi hisoblanadi. O'zbek xalqi o'zining qadimiy urf- odatlari va hayotiy tajribalariga boy bo'lgan xalq ekanligi, albatta, sir emas. Keling, bir-biridan go'zal ma'no ifodalaydigan maqollar to'plamidan namunalar yozamiz.

- Qizing yeb qirga ketar, o'g'ling yeb o'rga.

- burgaga achchiq qilib, ko'rpangni kuydirma.
- Teshik munchoq yerda qolmas, yerda qolsa kimlar olmas.
- O'zi yemas, itga bermas.
- Qilni qirqqa yormoq.
- Yomonning janozasidan yaxshining hikoyasi afzal.
- Kampirning dardi go'zada (pardozi qiluvchi), sichqonning dardi donliq ko'zada.
- Tana buzoqning turqi tug'ganiga ma'lum.
- Kecha kelding kerilib, bu kun ketasan burilib.

Yuqorida keltirilgan maqollar qadim zamonlardan boshlab ishlatilib kelingan ma'qollardir. Bularni Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar", Abdulhamid Cho'lponning "Kecha va kunduz", Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" kabi romonlarida ham uchratishimiz mumkin.

Frazeologizmlarning yuzaga kelishi faqat ma'no hodisasidir. Tilning frazeologik qatlami doimiy ravishda yangi frazeologizmlar bilan boyib boradi. Shu bilan birga xalq taraqqiyoti qonunlarini aks ettiradi. Frazeologizmlarni o'qib, o'rganib, ularni tahlil qilish va tasniflash kishiga ma'lum ma'noda o'z xalqining tili haqida ma'lumotga ega bo'lishga yordam beradi. Frazeologizmlar so'zlovchi nutqini ta'sirchan va kuchli emotsiyaga boy bo'lishini ta'minlovchi muhim birlik hisoblanadi.

REFERENCES

1. Abdulhamid Cho'lpon. "Kecha va Kunduz" romani – Toshkent.: "Yangi Kitob" – 2022.
2. Abdulla Qodiriy "O'tgan kunlar" romani. Toshkent.: "Sharq" – 2018
3. Muxtorxon Eshon Umarxo'jayev. Diniy atama va iboralar. Qisqacha ommabop izohli lug'at. Toshkent.: G'ofur G'ulom nashriyoti, 2016.
4. Oxunjon Safarov "O'zbek xalq og'zaki ijodi" "Musiqqa" nashriyoti Toshkent 2010.
5. O'tkir Hoshimov. "Ikki eshik orasi" romani –T: Meriyus, 2017
6. Shavkat Rahmatullayev "O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati"